



**XORIJUY TILLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISH**

Raximova Go‘zal Bagriddinovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

*Ingliz tili funksional leksika kafedrasи o‘qituvchisi va mustaqil izlanuvchisi
gozalxonraximova45@gmail.com*

Annotatsiya: So‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar oliy ta’lim tizimida muhum ahamiyat kasb etib kelmoqda. Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnolgiyalarining integratsiyasi oliy ta’limning samarali natija erishishini ta’minlaydi. Jumladan, chet tili o‘qitishda sun’iy intellekt texnolgiyalarining integratsiyasi qisqa muddatda ko‘zlangan natijaga erishish imkoning beradi. Ushbu ilmiy maqola chet tili o‘qitish jarayonida talabalarning yozma nutq kompetensiyasini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish texnolgiyasini integratsiya qilish va natijalari haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Yozuv, imlo, yozish texnikasi, til materiali, sun’iy intellekt,

KIRISH. Chet til o‘qitish jarayonida chet tilidagi nutq faoliyati turlari ya’ni gapis, tinglab tushunish, o‘qishdan yozuvning farqi, uning o‘qitish maqsadi maqomiga ega emasligi bo‘lib, balki yuzuv ta’lim vositasi maqomiga ega ekanlidir. “Yozuv” tushunchasi semantik doirasini quyidagicha ochib berish mumkin: eng boshidan “yozmoq” turkiycha o‘zakdan olingan “yozuv”, “yozish” va “yozma” terminlari izoh talab qiladi. Ikkinci jihadan “yozma nutq”, “yozma muloqot”, “yozish texnikasi”, “yozma mashq”, “yozma ish”, “yozuv ko‘nikmasi/malakasi” va yunoncha “yozuv-chizuv”ni ifodalovchi, “grafika”, “grafema”, “kalligrafiya”, orfografiya” va lotinchadan “dictare”-yozish uchun aytish, “diktant”, arabchadan kirib kelgan “bayon”, “insho” kabi terminlarni uchratish mumkin. Keyingi jarayon “harf” bilan bog‘liq bo‘lib, harfiy timsol, harf birkmasi, digraph, alifbo, alifbe kabi atamalarni aks ettiradi. Yozuvni o‘rgatishda yuqorida qayd etilgan terminlarni metodik nuqtayi nazardan umumlashtirib tahlil qilinadi. Chet tilida yozuv deganda ushbu til vositalari qo‘llanilib, yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi.³⁰³ Yozma nutqda grafemalar va yozma shakldagi leksik va grammatik birliklar lisoniy vositalarni tashkil qiladi, hamda ularning qo‘llanilishi ya’ni yozilishi yozma nutqning yozish texnikasi sanaladi. Ingliz tili orfografiyasi juda murakkab bo‘lib, uning tarixiga nazar solsak boshqa tillardan ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirgan. Bu so‘zlarning ko‘philigi o‘z talaffuz va yozuv me’yorini saqlab qolgan, ba’zilari esa ingliz tili

³⁰³ Jalolov Jamol Jalolovich. Chet til metodikasi: chet tillari oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/-Toshkent: O‘qituvchi, 2012.-283 bet.

talaffuz qoidasiga asosan o‘zgargan. Ingliz tili imlo birliklarini 3 turga bo‘lamiz, bular: 1) qiyinchiliklari kamroq imlo birliklari; 2) o‘rtacha qiyinchilik tug‘diradigan birliklar; 3) o‘ta qiyin imlo birliklari. Biz misol qilib birinchi toifaga otlarda ko‘plik sonning odatiy yasalishi hamda hozirgi noaniq zamonda 3-shaxs birlik shaklini va sifat darajalari qoidalarini misol qila olamiz. O‘rtacha qiyin imlo birliklariga bir bo‘g‘inli so‘zlar va so‘zlarning bosh harf bilan yozilishi, ingliz realiyalari, ko‘cha nomlarining yozilishi kiradi. O‘ta qiyin imlo birkmalari o‘z ichiga bir neshta hodislarni jamlaydi, misol uchun omonimlar, bir fonemaning birdan ortiq, grafemalar bilan ifodalanishi, otlarda ko‘plik soning qoidaga bo‘ysinmagan mustasno shakli, gerundiyning yasalishi jarayonida ikkilanishi, so‘z boshida undosh harfning o‘qilmasligi va boshqalar. Birinchi turdagи jarayonlar morfologik, ikkinchi fonetik va uchunchi esa tarixiy ya’ni an’naviy yozilish mezoni bo‘yicha o‘rgatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jarayonda morfologik prinsip bo‘yicha yoziladigan imlo birliklariga grammatik qoidlar yordam beradi, fonetik prinsiplarga asoslangan yozuv birliklari ya’ni orfografik birliliklar uchun esa ko‘rish va eshitish mashqlari ko‘proq qo‘llaniladi. An’naviy yoziladigan birliklar uchun esa eslab qolish va ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bundan bizga ma’lum bo‘ldiki, yozma nutqni o‘rgatish va uni rivojlantirish jarayonida talabada til materialini ya’ni leksika, grammatika, talaffuzni shakillantirish kerak. Bugungi kunda chet tili o‘qitish jarayonida ilg‘or texnologiyalardan bo‘lgan - sun’iy intellekt texnologiyalari til materialini ya’ni leksika, grammatika, talaffuzni shakillantirishda va rivojlantirishda samaraliy natijalar bermoqda. Sun’iy intellekt -inson ko‘nikmalarini qayta ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan dasturlar to‘plami hisoblanadi. “Sun’iy intellekt” atamasi birinchi bor Jon Makkarti tomonidan 1956-yil Amerika Ayvi Ligasi universiteti Darmut kollejida bo‘lib o‘tgan seminarda ishlatilgan.³⁰⁴

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bugungi kunda ingliz tili dunyo bo‘ylab keng tarqalishi va ushbu tilda ko‘p davlatlarda muloqat qilinishiga qaramasdan, ingliz tilida til materialini o‘zlashtirish jarajonida talaba yoki o‘rganuvchi shaxs ma’lum bir qiyinchiliklarga duch keladi. Biz tomonimizdan o‘rganib chilgan quyidagi olimlar ishi shuni ko‘rsatdiku, chet tili o‘rgatish jarayoniga texnologiya integratsiyasi til o‘rganishni sezilarli darajada yaxshiladi. Jumladan, olim Divya Baranwal o‘zining ilmiy maqolasida 1990-yillarda TAs ya’ni Teachable Agents atamasi ta’limga kirib kelgani hamda kompyuter yordamida o‘qitish va ta’lim berish chet tili o‘qitish jarayonida talabanining tushunish darajasini yetarlicha yaxshilaydi.³⁰⁵ Shu bilan birga Indaneziya olimlari Rizky Vita Losi, Eka Putra, Nurbaiti Ali, Adinda Silvana Dewi o‘zlarining empirik tadqiqot metodlari orqali ChatGPT, Quillbot, Grammarly kabi sun’iy intellektlar chet tili ta’limi jarayonida talabalarning ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali natijalar berishini isobtlashgan.³⁰⁶ Biz

³⁰⁴ M.Xurramov.K.Xalmuratova. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish: metodik qo‘llanma-T.: “Yetakchi nashriyoti”,2024.-5bet.

³⁰⁵ Baranwal, D. (2022). A Systematic Review of Exploring the Potential of Teachable Agents in English Learning. Pedagogical Research, 7(1), em0117. <https://doi.org/10.2933/pr/11553>

³⁰⁶ Rizky Vita Losi, Eka Putra, Nurbaiti Ali, Adinda Silvana Dewi. University of Pembangunan Panca Budi, Medan, Indonesia. USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) TO IMPROVE EFL STUDENTS’ WRITING SKILL. IJEAL (International Journal of

tomonimizdan tashkil qilgan empirik tadqiqot metodlari-kuzatish, taqqoslash shuni ko‘rasatdiku talabalarning ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini sun’iy intellekt bilan qisqa muddatda yaxshilash mumkin.

NATIJALAR. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiku talablar sun’iy intellekt yordamida o‘zlarining yozma nutq kompetensiyasini tez va samarali rivojlantirishlari mumkin. Olib borilgan empirik tadqiqot metodlari-kuzatish, taqqoslash natijalari shu ko‘rsatadiku, chet tili ta’lim jarayonida sun’iy intellekt orqali talabalarning til materialini ya’ni leksika, grammatika, talaffuzni tez suratlarda o‘zlashtirishlari imkonini mavjud bo‘lib, bu ularga o‘zlarining yozma nutq kompetensiyalarini yaxshilashga imkon beradi.

MUHOKAMA. Olib borilgan empirik tadqiqot metodlari-kuzatish, taqqoslash jarayonida talabalarda til materiali bo‘lmish leksika, grammatika va talaffuzni oshirishda sun’iy intellektning samaradorligi keng tahlil qilinib, muhokamalar Quillbot kabi sun’iy intellekt turlari talabalarda yozma nutqni ifodalashda akademik lug‘atlarni ishlatalish imkonini berishi isbotlandi. Grammarly sun’iy intellekti orqali amaliy tarzda talabalar o‘quv mashg‘uloti jarayonida o‘zlarining grammatik bilimlarini oshirishlari mumkinligi keng tahlil qilinib, olib borilgan eksperimentlar til o‘rgatishda sun’iy intellektning samaraly natija berishini isbotladi.

XULOSA. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda barcha sohlar kabi ta’lim sohasida ham samarali natija berishini ko‘rsatadi. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga hizmat qiladi. Jumladan, chet tili o‘qitishda talabalarning yozma nutq kompetensiyasini oshirishda qisqa muddat ichida samarali natijalalar beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jalolov Jamol Jalolovich. Chet til metodikasi: chet tillari oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/-Toshkent: O‘qituvchi, 2012.-283 bet.
2. M.Xurramov.K.Xalmuratova. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga hizmat qiladi. Jumladan, chet tili o‘qitishda talabalarning yozma nutq kompetensiyasini oshirishda qisqa muddat ichida samarali natijalalar beradi.
3. Baranwal, D. (2022). A Systematic Review of Exploring the Potential of Teachable Agents in English Learning. Pedagogical Research, 7(1), em0117. <https://doi.org/10.29333/pr/11553>
4. Rizky Vita Losi, Eka Putra, Nurbaiti Ali, Adinda Silvana Dewi. University of Pembangunan Panca Budi, Medan, Indonesia. USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) TO IMPROVE EFL STUDENTS’ WRITING SKILL. IJEAL (International Journal of English and Applied Linguistics) Volume : 4 | Number 1 | April 2024 | E-ISSN : 2787-9482 | DOI: doi.org/ijeal.v4i1.3694
5. Dizon, G. & Gayed, J. M. (2021). Examining the impact of Grammarly on the quality of mobile L2 writing. JALT CALL Journal, 17(2), 74-92. <https://doi.org/10.29140/jaltcall.v17n2.336>